GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYLARINING AKADEMIK YOZUV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI IMKONIYATLARI VA AKADEMIK HALOLLIK TAMOYILLARI

Bakiyeva Durdona Baxtiyarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
Guliston davlat
pedagogika instituti o'qituvchisi
bakiyevadurdona@gamil.com
http://orcid.org/0009-0006-1416-9802
https://doi.org/10.5281/zenodo.23118858

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining generative sun'iy intellektdan foydalanishi tajribalari, Sun'iy intellekt yordamida bajarilgan akademik faoliyatga nisbatan axloqiy axloqiy qarashlari va akademik halollik tamoyillari yuzasidan qarashlarini aniqlash hamda akademik yozuvni rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish sharoitida akadmik halollik kabi omillarning bog'liqligininemperik jihatdan asoslab beriladi.Ushbu tadqiqotda B.D.Lund,T.H.Lee, N.R.Mannuru va N.Arutlalar tomonidan taklif etilgan generative sun'iy intellekt va akademik halollik tamoyilini o'rganish modeliga metodologik jihatdan tayaniladi. Shuningdek mazkur model O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining filologik ta'lim yo'nalishlari kontekstiga moslashtiriladi. Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida butun akademik matnni yaratish, g'oya ishlab chiqish, reja tuzish, grammatik va stilistik tahlil, tarjima va bibliografik ma'lumotlarni izlash kabi filologik faoliyat turlari alohida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: generative sun'iy intellekt, akademik halollik, filologik ta'lim, ChatGPT, SI asosida yozuv, akademik yozuv.

THE POTENTIAL OF GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN DEVELOPING ACADEMIC WRITING SKILLS AND PRINCIPLES OF ACADEMIC INTEGRITY

Abstract

This study examines the experiences of students within the philological education system of Uzbekistan's higher education sector regarding the use of artificial intelligence in academic activities, their ethical perspectives on this technology, and issues concerning academic integrity and writing skills. The methodology is based on the model for studying generative AI and academic integrity practices proposed by B.D.Lund, T.H.Lee, N.R.Mannuru, and N.Arutla, adapted to the specific context of philological education in Uzbekistan's higher education system. The research analyzes various philological activities facilitated by AI technologies, such as drafting entire academic texts, generating ideas, outlining, grammatical translation, stylistic analysis, and retrieving bibliographic information.

Keywords: generative artificial intelligence, academic integrity, philological education, ChatGPT, AI-assisted writing, academic writing.

ПОТЕНЦИАЛ ТЕХНОЛОГИЙ ГЕНЕРАТИВНОГО ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ АКАДЕМИЧЕСКОГО ПИСЬМА И ПРИНЦИПОВ АКАДЕМИЧЕСКОЙ ДОБРОСОВЕСТНОСТИ

Аннотация

В данном исследовании рассматривается опыт студентов, обучающихся по филологическим специальностям в системе высшего образования Узбекистана, в контексте использования искусственного интеллекта в учебной деятельности; анализируются их этические взгляды на эту технологию, а также вопросы академической добросовестности и развития навыков письменной речи. Методология исследования основана на модели изучения генеративного ИИ и практик академической добросовестности, предложенной Б.Д. Лундом, Т.Х. Ли, Н.Р. Маннуру и Н. Арутлой, с учетом специфики филологического образования в системе высшего образования Узбекистана. В работе анализируются различные виды филологической деятельности, поддерживаемые технологиями ИИ, такие как написание полных текстов академических работ, генерация идей, составление плана, грамматический перевод, стилистический анализ и поиск библиографической информации.


Ключевые слова: генеративный искусственный интеллект, академическая добросовестность, филологическое образование, ChatGPT, написание текстов с помощью ИИ, академическое письмо.

Generativ sun’iy intellekt texnologiylarining so‘nggi yillardagi ommalashuvi natijasida O‘zbekiston sharoitida ham oliy ta’lim muassasalarida filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining akademik yozuv ko‘nikmasini rivojlantirishning shart-sharoitlarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Talabalarning sun’iy intellekt texnologiylaridan foydalanishining barcha shakllarini akademik qoidabuzarlik sifatida baholash yoki ta’limiy yordam sifatida qabul qilish masalani to‘liq hal qilmaydi. Talabalarning akademik yozuv jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan g‘oya olishi bilan butun akademik matnni sun’iy intellekt yordamida yaratishi bir xil akademik faoliyat hisoblanmaydi. Bunday o‘rinlarda talabalarning mustaqil mustaqil intellektual hissasi nuqtai nazaridan sezilarli farqlar mavjud. Shu sababli O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining generativ sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning qaysi shakllari maqbul akademik yordam sifatida qabul qilinishi, qaysilari akademik qoidabuzarlik sifatida talqin qilinishini emperik jihatdan aniqlab olish zarur.

Filologik ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun generativ sun’iy intellektdan foydalanishining maxsus faoliyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

mavzu bo‘yicha g‘oya yig‘ish;
ilmiy ish rejasini yaratish;
matnning grammatik xatolarini tekshirish;
stilistik tahlil qilish;
tarjima qilish;
bibliografiya va manbalar bilan ishlash;
ilmiy ishlarni ayrim qismlarini yaratish.

Yuqoridagi tasniflar Lund va hammualliflarining sun’iy intellekt va akademik yozuv aloqadorligi asosidagi modelini filologik ta’lim yo‘nalishi predmet xususiyatlari bilan kengaytirish uchun imkoniyat beradi. Ushbu tadqiqot ishida esa quyidagicha tizimli modeldan foydalanildi:



1.Rasm. Sun’iy intellektdan akademik yozuv jarayonida foydalanish.

Mazkur generative sun’iy intellekt texnologiyalari asosida akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonlarida sun’iy intellekt ulushi va undan foydalanishda akademik halollik tamoyillariga rioya qilinishini ta’minlash masalalarini o‘rganishga bag‘ihslangan tadqiqot Ishida quyidagicha gipotezalar ilgari surildi:

1. Akademik halollik tamoyillaridan xabardorlik akademik matnni to‘liq
sun’iy intellekt yordamida yaratishni jiddiy akademik qoidabuzarlik sifatida baholanishiga olib keladi;

2. Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan akademik matnni “mustaqil ish”
sifatida baholanmaydigan respondentlarda sun’iy intellekt yordamidagi qoidabuzarliklarni jiddiyligini baholash ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ladi;

3. Filologik ta’lim yo‘nalishi talabalari sun’iy intellektdan yordamchi
maqsadlarda foydalanish ya’ni g‘oya olish, grammatik va leksik jihatdan matnni tahrirlash kabi faoliyatlar to‘liq akademik matnni yaratishdan ko‘ra maq’ul deb topiladi;

4. Sun’iy intellekt texnologiylaridan foydalanish chastotasi yuqori talabalar
sun’iy intellekt asosidagi ayrim akademik faoliyatlarni qoidabuzarlik sifatida baholamaydi;

5. Sun’iy intellektdan filologik maqsadlarda foydalanishda faoliyat turiga
qarab SI dan foydalanishning maqbulligi yuzasidan qarashlar keskin farq qiladi;

6. Akademik halollik tamoyillariga oid axloqiy qarashlar demografik
omillarga nisbatan SI asosidagi akademik qoidabuzarlikni baholashning kuchli predikatori bo‘ladi.

Ushbu gepotezalarni aniqlash uchun O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan filologik ta’lim yo‘nalishi talabalari orasida keng ko‘lamli so‘rovnoma o‘tkazish ko‘zda tutilgan bo‘lib, unda 2025-yil Lund va uning hammualliflari tomonidan ishlab chiqilgan modeldan metodologik asos sifatida foydalanish, uning savollarini O‘zbekistondagi filologik ta’lim yo‘nalishlari kontekstiga lingvistik va madaniy jihatdan adaptatsiya qilinadi. Keyingi bosqichda so‘rovnoma natijalarida shakllanishi mumkin bo‘lgan muhim yoki qarama-qarshi tendensiyalarni muhokama qilish maqsadida filologik ta’lim yo‘nalishi talabalari bilan focus-guruhlar tashkil qilish nazarda tutilgan. So‘rovnoma natijasida olingan miqdoriy ma’lumotlarni tahlil qilishda tavsifiy statistik tahlil, ishonchlilik va validlik tahlili, korrelyatsion tahlil, ko‘p omilli repressiya tahlili kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Sifat ma’lumotlarini tahlil qilihda tematik analizdan foydalanilib, unga ko‘ra filologik ta’lim yo‘nalishi talabalari “maqbul SI yordami”, “akademik mualliflik”, “mustaqil ish”, “plagiat” va “SI yordamida akademik qoidabuzarlik” kabi tushunchalarni qanday talqin qilishi aniqlanadi.

Tadqiqot ishida kutilayotgan ilmiy yangilik generativ sun'iy intellekt va akademik halollik muammosini umumiy oliy ta'lim kontekstida emas balki filologik faoliyatning turli shakllari bo'yicha differensial model asosida o'rganishdan iborat bo'lishi mumkinligi bilan izohlanishi mumkin. Shuningdek tadqiqot ishi doirasida O'zbekistonda filologik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun generative sun'iy intellektdan akademik qoidabuzarliklarsiz foydalanish modeli va SI dan foydalanish etikasi bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli "Oliy ta'lim tizimini
2. 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996
4. sonli "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-avgustdagi PQ-5234
6. sonli "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
7. Barrot, J. S. (2023). Using ChatGPT for second language writing: Pitfalls and
8. potential. Assessing Writing, 57, 100745.
9. Chan, C. K., & Hu, W. (2023). Students' voices on generative AI: Perceptions,
10. benefits, and challenges in higher education. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 20, 43.
11. Lund, B.D., Lee,T.H.,Mannuru,N.R., and Arutla,N (2025). AI and academic
12. integrity: Exploring student perceptions and implications for higher education. Journal and Academic Ethics, 23(3), 1545-1565.http://doi.org/10.1007/s10805-025-09613-3